XALQ DEPUTATLARI MUBORAK TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 30 - mart VI-38-38-4-64-K/22 Muborak tuman hokimligi

2022-yil uchun Muborak tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning yer solig‘ining aniq miqdorlarini belgilash to‘g‘risida

O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412, 429 va 437-moddalari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-sonli farmoni, O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 24-yanvardagi (06/04-02-02-32/203-son) xatiga asosan Qashqadaryo viloyat Moliya bosh boshqarmasining 2022-yil 4-fevraldagi (01-35/10-07-32/340-son) xati, Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 18-fevraldagi VI-41-34-4-0-K/22-sonli qarori hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Muborak tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Qashqadaryo viloyat Moliya bosh boshqarmasining 2022-yil 4-fevraldagi (01-35/10-07-32/340-son) xati, Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 18-fevraldagi VI-41-34-4-0-K/22-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Muborak tumanidagi mahallalarni iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab:

2022-yilda mahalla fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koyeffitsiyentlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi Muborak tumani bo‘yicha Soliq

kodeksida belgilangan yer solig‘i stavkalarida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan mahallalar kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koyeffitsiyentlarni kiritish huquqiga ega.

Bunda yer solig‘ining amaldagi stavkalari indeksatsiya qilinishi inobatga olinsin hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari keyingi yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozi doirasidan kelib chiqqan holda kamaytiruvchi va oshiruvchi koyeffitsiyent qo‘llash ma’qullansin.

3.Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan xalq deputatlari Muborak tumani Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi “Muborak tumanining 2022-yil mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-35-89-4-64-K/21-sonli qarori 2-ilovasi 2022-yildan o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

4.Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Sh.Abdullayev va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari v.v.b G'.Rajabov zimmalariga yuklatilsin.

5.Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashining 2022-yil 3-martdagi “Ayrim mahalliy Kengash qarorlarini bekor qilish to‘g‘risida”gi VI-42-40-4-0-K/22-sonli qarori bilan Xalq deputatlari Muborak tuman Kengashining 2022-yil 22-fevraldagi “Xalq deputatlari Muborak tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi “Muborak tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-35-89-4-64-K/21-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi VI-36-18-4-64-K/22-sonli qarori bekor qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Kengash raisi **A.O.Aripov**

Xalq deputatlari Muborak tuman
Kengashining
2022 yil 30 martdagi
VI-38-38-4-64-K/22-son qaroriga
1-ilova

Muborak tumanidagi mahalla fuqarolar yig'inlari bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslar

uchun belgilangan yer solig'i bazaviy stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsentlar miqdorlari

2022 yil uchun

№	Mahalla fuqarolar yig'inlari nomi	Yuridik shaxslar uchun yer solig'i stavkasi		Jismoniy shaxslar uchun yer solig'i stavkasi	
		Koeffitsent miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, so'mda)	Koeffitsent miqdori	Soliq summasi (1 kv.m uchun, so'mda)
1	Sardoba MFY	1,00	23 432 000,00	1,00	182,00
2	A.Temur MFY	0,90	19 952 000,00	0,85	154,70
3	Qarliq MFY	1,00	23 432 000,00	1,00	182,00
4	Paxtakor MFY	1,00	23 432 000,00	1,00	182,00
5	Barkamolavlod MFY	1,00	23 432 000,00	1,00	182,00
6	Yangiobod MFY	1,00	23 432 000,00	1,00	182,00
7	Sariq MFY	1,00	23 200 000,00	0,95	172,90
8	Obodturmush MFY	1,00	23 200 000,00	0,95	172,90
9	Xitoy MFY	1,00	23 200 000,00	0,95	172,90
10	Qoraqum MFY	1,00	23 200 000,00	0,95	172,90
11	Yashnaobod MFY	1,00	23 200 000,00	0,95	172,90
12	Buston MFY	1,00	23 432 000,00	1,00	182,00
13	Konchilar MFY	1,20	27 840 000,00	1,10	200,20
14	Yoshlik MFY	1,20	27 840 000,00	1,10	200,20
15	Tong MFY	1,20	27 840 000,00	1,10	200,20
16	Bobur MFY	1,20	27 840 000,00	1,10	200,20
17	Do'stlik MFY	1,20	27 840 000,00	1,10	200,20
18	Quruvchilar MFY	1,20	26 680 000,00	1,10	200,20
19	Muborak MFY	1,00	22 040 000,00	0,85	154,70
20	Ko'hnashahar MFY	0,90	19 952 000,00	0,85	154,70
21	Geolog MFY	1,00	23 200 000,00	1,00	182,00
22	O'zbekiston MFY	1,00	23 200 000,00	1,00	182,00
23	A.Navoiy MFY	1,00	23 200 000,00	1,00	182,00
24	Mash'al MFY	1,00	23 200 000,00	1,00	182,00
25	Istiqlol MFY	0,90	19 952 000,00	0,85	154,70